

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR MASALASI**Yusupov E'zozbek O'rol o'g'li**

Jizzax yuridik texnikumi

Sud Huquq Faoliyati 18/24-guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20473487>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlar masalasi, ularni huquqiy tartibga solishning hozirgi holati hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida sun'iy intellektning huquqiy ta'rif, uning yordamida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning turlari, deepfake texnologiyalari orqali soxtalashtirilgan kontent muammosi, shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi va ushbu sohada javobgarlik masalalari o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvarda qabul qilingan O'RQ-1115-son Qonuni va keyingi normativ-huquqiy hujjatlar asosida sohaning huquqiy tartibga solinishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt sohasidagi javobgarlik me'yorlarini yanada takomillashtirish va xalqaro tajribadan keng foydalanish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kiberjinoyatchilik, deepfake, shaxsga doir ma'lumotlar, raqamli huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, etika.

THE ISSUE OF CRIMES COMMITTED THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation. This article analyzes the issue of offenses and crimes committed through artificial intelligence technologies, as well as the current state and prospects of their legal regulation. The study examines the legal definition of artificial intelligence, the types of offenses that can be committed using it, the problem of fabricated content through deepfake technologies, the inviolability of personal data, and issues of liability in this field. The legal regulation of the sphere is analyzed on the basis of the Law of the Republic of Uzbekistan No. URQ-1115 adopted on January 21, 2026, and subsequent normative legal acts. The findings substantiate the need for further improvement of liability norms in the field of artificial intelligence and broader use of international experience.

Keywords: artificial intelligence, cybercrime, deepfake, personal data, digital offense, administrative liability, criminal liability, information security, digital economy, ethics.

KIRISH

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha sohalarini, jumladan, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, davlat boshqaruvi va boshqalarni tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar bir tomondan ulkan imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan yangi turdagi xavf-xatarlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Eng tashvishlisi shundaki, sun'iy intellekt qonunbuzarlar tomonidan ham keng qo'llanila boshlandi va u yordamida sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda internet tarmoqlarida sun'iy intellekt yordamida ishlov berilgan noqonuniy materiallar 1 129 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 3 553 taga yetdi. Bunda aholining ishonchiga kirish maqsadida o'zga shaxslarning qiyofasi va ovozidan foydalanilgan. Dunyo bo'yicha esa o'tgan yilda sun'iy intellektdan foydalanib, taniqli shaxslarning audio, foto va videolarini soxtalashtirish 50 barobarga oshganligi qayd etilgan. Bu raqamlar sohada huquqiy chora-tadbirlarni ko'rishning dolzarbligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi sun'iy intellekt sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha izchil ishlarni amalga oshirib kelmoqda. 2024-yil 14-oktabrda Prezidentning PQ-358-son qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangan bo'lsa, 2026-yil 21-yanvarda "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RB-1115-son Qonun qabul qilindi. Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar masalasini, ushbu sohada O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro tajribasini tahlil qilishdan iborat.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellekt yordamida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni tahlil qilishdan oldin, sun'iy intellekt tushunchasiga huquqiy ta'rif berish lozim. 2026-yil 21-yanvardagi O'RB-1115-son Qonun bilan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, sun'iy intellekt deganda insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish, mustaqil o'rganish, yechimlarni izlash va aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmui tushuniladi. Bu ta'rif sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt yordamida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – axborot xavfsizligiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarliklar. Bularga shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish, ishlov berish va tarqatish kiradi. Sun'iy intellekt algoritmlari ulkan hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni tezkor tarzda qayta ishlash imkonini beradi, bu esa qonunbuzarlar tomonidan suiiste'mol qilinishi mumkin.

Ikkinchi guruh – kontentni soxtalashtirish (deepfake) bilan bog'liq huquqbuzarliklar.

Sun'iy intellekt yordamida real shaxsning qiyofasi va ovozini soxtalashtirib, soxta video va audio materiallar yaratish mumkin.

Uchinchi guruh – moliyaviy va iqtisodiy jinoyatlar. Sun'iy intellekt yordamida fishing-hujumlari, soxta to'lov tizimlari, manipulyatsiyaga asoslangan firibgarlik sxemalari amalga oshirilishi mumkin. To'rtinchi guruh – mulkka va shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar. Bunda sun'iy intellekt operatsiyalashtiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi: avtonom transport vositalari, dronlar va boshqa qurilmalar orqali. Beshinchi guruh – jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

Sun'iy intellekt orqali soxta yangiliklar tarqatish, jamoat tartibini buzishga undash, terroristik xarakterdagi propaganda olib borish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlik me'yorlari bosqichma-bosqich shakllantirilmogda. O'RB-1115-son Qonun bilan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunga muhim o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslari belgilandi, ushbu sohadagi vakolatli davlat organining vakolatlari aniqlashtirildi. Eng muhimi, qonunda insonning huquqi va erkinligiga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqat sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan texnologiyalar asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosalariga tayanish mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Yangi qonunchilik bo'yicha sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslariga markirovka qo'yish talabi joriy etildi. Bu degani – sun'iy intellekt orqali yaratilgan har qanday mahsulot, video, audio yoki matnda mahsulot SI yordamida yaratilganligini ko'rsatuvchi maxsus belgi qo'yilishi shart.

Bu norma kontent iste'molchilarini soxta materiallardan himoya qilish va ularning ongli qaror qabul qilishlariga yordam berishga qaratilgan.

2026-yil 4-fevralda qabul qilingan O'RQ-1116-son Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik me'yorlari kiritildi. Xususan, sun'iy intellektdan foydalanib, shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov bergan va tarqatgan shaxslarning ish qurollari musodara qilinishi, 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olish yoki bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari (taxminan 18,75 mln so'm) dan 100 baravari (taxminan 37,5 mln so'm) gacha miqdorda jarima solinishi belgilangan.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham kiberjinoyatchilikka oid bir qator moddalar mavjud. Xusuda, Kodeksning 278-1 moddasi ("Kompyuter axboroti yo'qoltirilishiga, o'zgartirilishiga olib kelgan kompyuterga noqonuniy kirish"), 278-2 moddasi ("Zararli dasturlarni tayyorlash maqsadida foydalanish, tarqatish"), 278-3 moddasi ("Kompyuter axborotini noqonuniy egallash"), 278-4 moddasi ("Kompyuter tizimlari uchun mo'ljallangan dasturlarga noqonuniy ta'sir o'tkazish") va shu kabi moddalar sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jiddiy huquqbuzarliklar bo'yicha jinoiy javobgarlikni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlarning huquqiy malakasini berishda eng murakkab masalalardan biri – javobgar subyektni aniqlashdir. Bunda quyidagi savollar tug'iladi: ushbu huquqbuzarlikning sub'yekti kim? Sun'iy intellektning ishlab chiqaruvchisimi, dasturchisi mi, foydalanuvchisimi yoki SI tizimining o'zimi? Hozirgi huquqiy doktrina sun'iy intellektni mustaqil huquqiy subyekt sifatida tan olishni rad etadi va jinoyat sodir etganda javobgarlik ushbu texnologiyani yaratgan yoki undan foydalangan jismoniy yoki yuridik shaxsga yuklatilishi kerakligini ta'kidlaydi. Lekin bu yondashuv to'liq autonom SI tizimlari rivojlangan sari yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro miqyosda sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan AI Act (Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun) risklarga asoslangan yondashuvga asoslanadi: turli xil SI tizimlari ularning xavf darajasiga qarab tartibga solinadi. AQShda esa bozor-yo'naltirilgan yondashuv ustunlik qiladi: davlat tomonidan ortiqcha aralashuv minimal darajada bo'lib, asosiy e'tibor texnologiyalarning rivojlanishiga qaratilgan. Xitoyda davlat tomonidan kuchli nazorat va majburiy markirovka tizimi joriy etilgan. O'zbekiston bu yondashuvlar oralig'idagi muvozanatli yo'lni tanlagan.

MUHOKAMA

Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlar masalasi bir qator nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, jinoyat huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan: an'anaviy jinoyat tarkibida ayb, niyat, qasd kabi sub'yektiv tomon unsurlari mavjud. Lekin sun'iy intellekt autonom tarzda harakat qilganda, bu unsurlar qanday tahlil qilinadi? Agar SI tizimi o'z ijodkorlari kutmagan, ko'zda tutmagan oqibatlariga olib kelsa, kim javobgar bo'ladi? Bu savollar jinoyat huquqi doktrinasining yangi konseptual yondashuvlarini talab etadi.

Ikkinchidan, deepfake muammosi alohida e'tibor talab qiladi. Sun'iy intellekt yordamida real shaxsning ovozi va qiyofasini juda yuqori darajada soxtalashtirish mumkin.

Bu shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini buzish, soxta dalillar yaratish, siyosiy manipulyatsiyalar olib borish uchun ishlatilmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir.

Shu sababli, deepfake yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik me'yorlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, dalillarni baholash muammosi. Sun'iy intellekt orqali yaratilgan kontent shu darajada haqiqiyga o'xshashki, uni soxtaligini aniqlash uchun maxsus ekspertizalar zarur. Bu sud organlari, tergov idoralari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi malakalar va texnik vositalar bilan ta'minlanishini taqozo etadi.

O'zbekistonda bu yo'nalishda Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi qoshida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'limlari faoliyat yuritmoqda.

To'rtinchidan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalasi. Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan firibgarlik, fishing va boshqa kiberhujumlarning aksariyati fuqarolarning yetarlicha xabardor emasligi va ehtiyot choralariga rioya etmasligi natijasida amalga oshadi. Shu sababli, aholining raqamli savodxonligini oshirish, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish, ta'lim tizimida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Beshinchidan, transchegaraviy xarakterdagi muammolar. Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati transchegaraviy bo'lib, ularda jinoyatchi bir mamlakatda, jabrlanuvchi esa boshqa mamlakatda bo'lishi mumkin. Bu xalqaro hamkorlikni va o'zaro huquqiy yordamni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht Konventsiyasi (2001) tamoyillariga moslashtirilgan milliy qonunchilikni shakllantirish va shu sohadagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda.

Oltinchidan, etika va inson huquqlari masalasi. Sun'iy intellekt insonning huquq va erkinliklariga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilishda qo'llanilganda, bu qarorlar adolatli, shaffof va sof bo'lishi kerak. O'RQ-1115-son Qonundagi muhim norma – insonning huquq va erkinligiga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqat SI ga tayanish mumkin emasligi to'g'risidagi norma aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu inson omilini saqlab qolish va texnologik determinizmga yo'l qo'ymaslik bo'yicha muhim huquqiy kafolatdir.

Yettinchidan, jamoat manfaatlari va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi muvozanat masalasi. Sun'iy intellekt sohasidagi javobgarlik me'yorlarini haddan tashqari qattiqlashtirish texnologiyalarning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin, ularni juda yumshatish esa fuqarolar huquqlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston tanlagan muvozanatli yondashuv – sohani huquqiy maydonga olib chiqib, asosiy qoidalar va sub'yektlarni aniqlash, lekin innovatsiyalarni cheklamaslik – maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlar masalasi zamonaviy huquqshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi qonunchilik takomillashtirilishini ham doimiy ravishda talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi bu yo'nalishda muhim qadamlar qo'ydi: 2024-yilda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi, 2026-yilda esa SI sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi qonunchilik bazasi sun'iy intellekt sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun zarur huquqiy poydevorni yaratdi.

Xususan, sun'iy intellekt tushunchasiga ta'rif berilishi, axborot resurslarini markirovkalash talabining joriy etilishi, shaxsga doir ma'lumotlarni sun'iy intellekt yordamida noqonuniy ishlov berganlik uchun ma'muriy javobgarlikning belgilanishi muhim yangiliklar hisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklariga aloqador qarorlarni qabul qilishda faqat SI ga tayanish mumkin emasligi to'g'risidagi norma inson omilini saqlab qoluvchi muhim huquqiy kafolatdir.

Shu bilan birga, sohada hal etilishi kerak bo'lgan ko'plab masalalar saqlanib qolmoqda.

Bularga deepfake yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun maxsus javobgarlik me'yorlarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan og'ir jinoyatlar uchun Jinoyat kodeksiga mos qo'shimchalar kiritish, sud-elektron ekspertizalar tizimini takomillashtirish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kiradi.

Shuningdek, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, ta'lim tizimida sun'iy intellekt etikasi bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda.

Kelajakda mazkur yo'nalishda quyidagi tadqiqotlar zarurati saqlanib qolmoqda: sun'iy intellektning jinoyat huquqidagi sub'yektlik maqomini chuqurroq o'rganish, autonom sun'iy intellekt tizimlari sodir etgan zararlar uchun javobgarlikning huquqiy modellarini ishlab chiqish, xalqaro huquqiy normalarning milliy qonunchilikka moslashtirilishi yo'llarini izlash. Bu O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sohasida ilg'or mamlakatlardan biriga aylanishiga, ayni paytda fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. 21.01.2026, O'RBQ-1115-son.
5. Bozorov S.S. Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik: Yuridik fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2023.
6. Inog'omov Sh. Kiberjinoyatchilik va unga qarshi kurash. – Toshkent: TDYUU, 2022. – 280 b.
7. Council of Europe Convention on Cybercrime (Budapest Convention). – Budapest, 2001.